

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

HUVAYDO SHE’RIYATIDA BADIY SAN’ATLARNING POETIK JIHATLARI

Dilfuza Zaripova,

*O‘zbekiston Respublikasi Buxoro akademik litseyi Filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori(PhD), dotsent
dilfuzabaxtiyorovna010@gmail.com*

Xo‘janazar Huvaydo o‘zbek mumtoz adabiyotida yetuk shoir sifatida tanilgan. Ya’ni uning o‘ziga xos falsafiy dunyoqarashni mujassam etgan she’rlari, baytlari xalq orasida mashhurdir.

Ammo o‘tmishda shoirlarimizning lirik merosini to‘laqonli targ‘ib qilish uchun yetarli imkoniyat bo‘lmagan. Tadqiqotchilar ham, avvalo, adiblar ijodining eng sara namunalarini o‘rganib, targ‘ib etib, xalq e’tiborini tortdi. Xuddi shunday holat Huvaydo lirikasini o‘rganish tajribalarida ham kuzatiladi. Hozirgacha olimlar diqqat markazida faqat uning lirikasidagi tanlangan asarlarga qaratilgan.

Huvaydo ijodining aksariyat qismini lirika tashkil etadi. Unda hayotni sevish, halollik va to‘g‘rilikni ulug‘lash, kishilarni insofga chaqirish, nafs ortidan quvishni, kibrni qoralash kabi motivlar muhim o‘rin tutadi.

XVIII-XIX asr o‘zbek adabiyotining ilg‘or namoyondalari o‘zbek mumtoz adabiyotining ilg‘or an‘analarini davom ettirib, an’anaviy mavzu, obraz, janr va she’riy uslublardan foydalangan holda o‘zlarining ilg‘or g‘oyalarini bayon qildilar. Shoir Huvaydo ham, asosan, mumtoz adabiyot an‘analari doirasida ijod qilgan, lekin o‘tmish adabiyotining janr va shakllaridan foydalangan. Uning ijodida g‘azal lirikasining yetakchi janri muhim va salmoqli o‘rin tutadi. U g‘azal janriga xos bo‘lgan qator qulaylik va afzalliklarni chuqur anglagan, ularni hisobga olgan, badiiy imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalangan.

Ijtimoiy hayot, inson hayoti muhabbat bilan uzviy bog‘liqdir. Binobarin, bu mavzu barcha shoirlar uchun ilhom manbai edi. Huvaydo ham bu mavzuni samarali rivojlantirdi, muammolarini ilgari surdi. Barcha sharq lirikasidagidek, Huvaydo lirikasida yetakchi va keng yoritilgan mavzu bu – ilohiy ishq. Huvaydo lirikasi Mashrab ijodi kabi shijoat, ishtiyoq, isyonkorlik ruhi bilan ajralib turadi. Garchi barcha Sharq shoirlari lirikasida ishq mavzusi yetakchi bo‘lsa-da, ko‘pgina yirik shoirlarning o‘ziga xos ishq tushunchasi bo‘lgan. Ilohiy ishq tushunchasi ularning falsafiy e’tiqodlari bilan bog‘liq edi. Chunki har qanday lirik asar shoirning falsafiy dunyoqarashiga mos ravishda yaratilgan. Huvaydo o‘z lirikasida asosan ishq, haqiqiy inson muhabbati maqomida turadi. Lekin Huvaydo lirikasidagi ishqni sof dunyoviy,

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

ya’ni majoziy ishq deb tushunish va talqin qilish biryoqlamalik bo’lardi. Huvaydo lirikasida majoziy ishq bilan birga ilohiy ishq (“ishqi haqiqat”) ham ma’lum o’rin tutadi.

Ma’lumki, lirikada aql bilan qalb, his-tuyg‘u va fikr o’rtasida abadiy va tinimsiz bahs bor. Bu Huvaydo lirikasida yaqqol seziladi. Uning g‘azallarida ishq kechinmalari, samimiy tuyg‘ular, falsafiy mushohadalar, hikmatli fikrlar ustunlik qiladi. Lirikaning bu xususiyatlari lirik qahramonning fazilatlarini va faoliyatida mujassamligini ko’rish mumkin. Huvaydo asarlarining lirik qahramoni ta’sirchan shaxs, mushohadali faylasuf qiyofasida namoyon bo’ladi. Huvaydo lirikasidagi barcha kechinmalar, falsafiy fikrlar ana shu lirik qahramon qalbi va tafakkuridan oqib keladi. Masalan, shoir “uy” so’zi orqali inson ko’nglini tasvirlagan.

“Bir buzuq vayronadur, ul uydakim yor o’lmasa,
Yor ila obod erur ul uyda ag‘yor ulmasa¹

(Agar inson ko’nglida ishq bo’lmasa, u ko’ngil uyi vayron bo’lgan kabidir, agar bu ko’ngilda ag‘yor, ya’ni nafs bo’lmasa, bu ko’ngil yor ishq bilan oboddir, deydi)

Bu misralarda “vayron” va “obod” so’zlari-**tazod**, “uy” so’zi-**istiora** san’atini yuzaga keltirgan.

Huvaydo ishq lirikasining asosiy obrazlari oshiq va ma’shuqadir. Shoir g‘azallarida oshiqning nolasi, ma’shuqaning beparvoligi kabi voqealarni tasvirlaydi:

“G‘amza o’qi bila oting man bas o’lay o’shal zamon,
Kunda mani yuz o’ldurub, muncha azobingiz nima?”

[Huvaydo. Devon. –B. 216].

(Noz bilan qarashing meni o’ldirdi, har kuni meni yuz marta o’ldirishing, bu nimasi?)

Bu misralarda oshiqning ma’shuqaga savol bilan yuzlanishi-**tajohuli orifona** san’atini yuzaga keltirgan.

Quyidagi g‘azalda oshiqning uchrashuvi va ularning suhbatini tasvirlangan.

“Qo’l solib keldi sanam bir-bir bosib,
Beliga xanjar hamoyildek osib.
Aydim: “Ey, jonim tasadduqdir sanga,
Bosh kerak bo’lsa, rizoman, ol kesib...”
Kuldi, aydi: “Bu kecha xilvatdaman,
Shum raqiblar bilmasun, borg’il pusib.
Bul Huvaydoni ko’ring bebaxtni:

¹ Xojamnazar Huvaydo. Devon. –T.:Yangi asr avlodi. 2017. –B. 202.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Borg‘oli qo‘ymas raqiblar yo‘l to‘sib”

[Huvaydo. Devon. –B.35].

Lug‘at:

***hamoyil**-yelka va qo‘ltiq orqali o‘tkazib taqiladigan bog‘ich.

(Go‘zal yelkasiga xanjarini osib vazmin va qat‘iy kirib keldi, dedim: “Ey, jonim senga fido, bosh kerak bo‘lsa, ol, roziman...” U kulib qo‘ydi va dedi: “Men bu kecha yolg‘izlikdaman, toki makkor raqiblar bilmasin, sezdirmay ket.” Bu baxtsiz Huvaydoga qarang, raqiblar go‘zal yoniga bormoq uchun yo‘lini to‘sdi).

Shoir tomonidan tasvirlangan oshiq va ma’shuqa obrazi mumtoz adabiyotimizda an’anaga aylangan mavzu– hamisha oshiq ma’shuqa vasliga zor bo‘lishidir. Ma’shuqa esa unga beparvo, visol yo‘lida raqibning paydo bo‘lish voqealari tasvirlangan. Shuni ta’kidlash kerakki, Huvaydo bu misralarda ma’shuqaning o‘ziga xos **portretini** chizadi: Jangovar qiyofadagi go‘zal siymosi. Huvaydoning bu tasviridan ma’juziy ma’noni ham payqash mumkin: Ma’shuqaning xanjaridan oshiq qalbi yaralangandek go‘yo.

Huvaydo jamiyatda adolat, do‘stlik, mehr-oqibat, kambag‘allarga yordam berish kabi fazilatlarni ulug‘laydi. U jamiyatda kishilarning vaqtida behuda o‘tkazishini qoralaydi. O‘z oldiga maqsad qo‘ya olmaganlarni “gullarni qanday terishni bilmaslik”da aybladi:

“Bu foniy chamandin guli maqsad tera olmay,
Hasrat gulidin bir g‘uncha terdim-u ketdim”.

[Huvaydo. Devon. –B.155].

*(Bu o‘tkinchi hayotdan maqsad gullarini tera olmay, bir necha g‘am gulini terib, ketdim, Ya’ni shoir bunda “foniy chaman” deganda o‘tkinchi hayotni, maqsad guli kishilarning ezgulik yo‘lida intilishlarini nazarda tutadi. U bunday kishilarni ko‘rib “hasrat guli”ni terib, bu dunyodan shunday o‘tib ketdim”,– deydi. “Foniy chamani”, “maqsad guli”, “hasrat guli”– **istiora** san‘atini yuzaga keltirgan.*

Hayot oqimi daryoga o‘xshaydi. Inson shu daryoda ko‘pikdek qisqa umr ko‘radi. Shoir inson bu qisqa umrni shodlik va zavq bilan o‘tkazish imkoniyatidan mahrum bo‘lganidan afsuslanadi:

“Bu dunyo misli daryoye, aning uzra hubob* o‘ttum,
Ki ko‘rmay ro‘yi obodin*, hamisha man xarob o‘ttum”.

[Huvaydo. Devon. –B.172].

Lug‘at:

***hubob**-suv yuzidagi pufak, ko‘pik

***obodin**-yaxshilik

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

(Bu dunyo daryoga o‘xshaydi, men undan ko‘pik kabi yaxshilik ko‘rmasdan, xarob bo‘lib o‘tdim).

Bu satrlar, odatda, lirik qahramonning hayotiy kechinmalarini, ya’ni shoirning “men” qalbidagi tuyg‘ularini, shoir shaxsiyati va zamonga munosabatini ifodalaydi. Davr jarohatlari shoir qalbining isyoni bo‘lib bong uradi. Shoir bu misralarda “dunyo”ni-daryoga o‘xshatishidan—**tashbeh** san’ati yuzaga kelgan.

Shoirning hayot sarguzashtlari, ijtimoiy motivlarga boy she’rlarida biografik ma’lumotlar ham mavjud. Uning qalbi g‘amga to‘lib-toshganki, uning ta’rifini to‘liq bayon etib bo‘lmaydi:

“Yurakda dard ko‘p, daftarga sig‘maydur, agar bitsam,
Qani bir dardmand oldida yig‘lab, holi dil aytsam”.

[Huvaydo. Devon. –B. 167].

(Yurakda iztiroblar ko‘p, ularni aytsam daftarga sig‘maydi, Qaniydi, bir dardmand oldida yig‘lab dardimni aytsam)

Bu misralarda “dard”, “dardmand”, ”yig‘lamoq” so‘zlaridan –**tanosib**, “dardining daftarga sig‘masligi” –mubolag‘a san’atini yuzaga kelgan.

Xo‘janazar Huvaydo peshqadam shoirlar an’analarini **didaktik mavzularda** rivojlantirgan so‘z ustasidir. U o‘zining didaktik g‘azallarida o‘z zamondoshlarini halol, adolatli, rostgo‘y, mehnatsevar bo‘lishga chaqiradi:

“Xudodin qo‘rqar ersang, mo‘minning molini zinhor,
Qilib qasd-u xiyonat, yignasin olmag‘il hargiz”.

[Huvaydo. Devon. –B.90]

(Allohdan qo‘rqsangiz, haqiqiy mo‘minning moliga tegmang, hatto ignasini ham olmang,– deydi).

Inson qanchalik boy bo‘lsa, doimiy qo‘rquvda yashaydi, aksincha, u qanchalik kambag‘al bo‘lsa, u turli tashvishlardan shunchalik ozod bo‘ladi:

“Dunyo qancha kam erur, senga mazarrat* kam erur,
Mol qancha ko‘pdurur, bo‘lg‘ay senga oncha zarar”.

[Huvaydo. Devon. –B.64]

Lug‘at:

***Mazarrat**-ziyon (*Senda qancha mol-dunyo kam bo‘lsa, shuncha ziyoni kam tegadi. Mol-dunyong qancha ko‘p bo‘lsa, zarari ham shuncha bo‘ladi, deydi*)

“Boylik ortidan yurgan baloga duchor bo‘ladi” degan xalq maqolining ham bejizga aytilmagan. Shuning uchun boylik bilan quvonishning hojati yo‘q: “Donai domi o‘lumdur, dunyoni mol-u puli,

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Dona terdim deb suyunma, domidin ayla hazar”.

[Huvaydo. Devon. –B.64]

(O‘lim tuzog‘idagi donlar: mol, pul, don yig‘ganingizdan xursand bo‘lmang, o‘lim tuzog‘idan ehtiyot bo‘ling).

Bu baytlarning barchasi Sharq didaktikasi e‘tiqodi bilan sug‘orilgan bo‘lib, komil insonni tarbiyalashga qaratilgan.

Quyidagi baytda Huvaydoning o‘zbek mumtoz adabiyotida an’anaviy obrazlardan qay darajada foydalanganini ko‘rish mumkin. Ma’lumki, kurtak ochilguncha xavfdan xoli bo‘ladi, gullashi bilanoq uni terib olishadi. Bu mumtoz adabiyotda badiiy timsoldir. Huvaydo ham mumtoz adabiyot shoirlari singari bunday timsollardan foydalangan. Bu majoziy chizgilarda Huvaydo o‘z davrining kemptiklarini aytib o‘tgan:

G‘uncha ko‘p og‘zini ochqach, bog‘da qo‘ymay uzdilar,

Og‘zini ochmasligida bildi bog‘bon qadrini.

[Huvaydo. Devon. –B. 231]

(G‘uncha og‘iz ochgan zahoti uziladi, og‘zini ochmagan vaqtda, bog‘bon qadrlaydi).

Bu misralarda “g‘unchaning og‘zi ochilishi”–**tashxis** san’atini yuzaga keltirgan. Huvaydo turli xalqlar o‘rtasidagi nizolarni qoralaydi va barcha xalqlarning yaqin ittifoqini qo‘llab-quvvatlaydi:

“Agar har kimni ko‘rsang, Xizr bo‘lgay deb tavof aylab,

Ki, haftodu du millat xalqi birla oshno bo‘lg‘il”.

[Huvaydo. Devon. –B. 150]

(Sen barchani Xizr deb qarasang, yetmish ikki millat ham senga do‘st bo‘ladi).

Shuni ta’kidlash kerakki, Huvaydo o‘zi yashagan davrda ilg‘or odamlardan biri bo‘lgan. Bu bayt xalqlar do‘stligi, millatlararo totuvlik g‘oyalari bilan zamon ruhiga yaqindir. U o‘z zamondoshlarini, avlodlarini yetmish ikki millat xalqlari bilan do‘stlikni saqlashga chaqiradi. Huvaydo bu misralarda “Xizr” so‘zining qo‘llanilishi–**talmeh**, “haftodu du”–**mulamma’** (ya’ni turli yillarda she’r yozish) badiiy san’atlaridan foydalangan.

Buning uchun inson yaxshi odamlardan ajralmasligi, ularning yaxshi o‘gitlarini tinglashi, ular bilan gaplashishi kerak: “O‘lgucha yaxshi bila o‘ltirgil-u bul hamnafas,

Yaxshidin, ey do‘stlar, hargiz ko‘ngil ozor emas”.

[Huvaydo. Devon. –B. 95]

(O‘lguningizcha yaxshilar bilan birga bo‘l, ular bilan gaplash, yaxshilardan, ey do‘stlar, ko‘ngil ranjimaydi).

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Hayotda shunday odamlar borki, agar boshiga musibat tushsa, hatto qarindoshlarini ham tanimay qoladi. Shuning uchun, avvalo, yaxshi odamlarni yomonlardan ajrata bilish kerak. Boshqa odamlar hisobiga boylik to‘plashdan ko‘ra, ma’naviy boy bo‘lish va yaxshi nom qoldirish afzalroqdir: “Saqlag‘il bir yaxshi ot, o‘zingga hargiz o‘lmasin,

Ey Huvaydo, saqlaguncha yilqida ming yaxshi ot”.

[Huvaydo. Devon. –B. 46]

(*Ming yilqi saqlaguningcha, yaxshi nomingni saqla, hech qachon hayotda o‘lmagan hisoblanasan*). Inson uchun eng kerakli fazilat–so‘zlash madaniyatining bo‘lishidir. Har yerda hatto o‘z uyingizda ham xayolingizga kelgan narsani aytish joiz emas. Quyidagi satrlarda Huvaydo Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiylar asarlarida yozib qoldirgan til odobi haqidagi qarashlarni davom ettirgan, desak xato bo‘lmaydi. Ma’lumki, didaktik qarashlar Huvaydo ijodining yetakchi xususiyatlaridan biridir. Insonlardagi xushmuomalalik ham axloqiy fazilatlarining biridir. Shoir ana shu mulohazalarni o‘z lirikasida ifodalaydi: “Har so‘zung bo‘lsa, boqib so‘zla, dilo, bo har nafas,

Aylag‘il parhezkim, oldingda bo‘lsa xor-u xas.

Xona xoli, uy mening deb, har qa-yu so‘z so‘zlama,

Bo‘lmag‘ay ravzan aro devorni keynida kas.

Vah, na xush davlat erur uzlatnishin, xomushluk,

Bo‘lmadim-u so‘zlagandin to‘ti darbandi qafas.

[Huvaydo. Devon. –B. 95]

(Har qanday so‘z arzimas tuyulsa ham o‘ylab ayt. Xonada yolg‘iz bo‘lsangiz ham devor orqasida kimdir nishonga tushmasligi uchun hech qanday so‘z aytmang. Oh, indamaslik qanaqa fazilat, qafasdagi to‘tiqush gapirgani uchun qafasga solindi). “**Dilo**” so‘zi –ko‘ngil ma’nosida qo‘llangan. Bu **nido** san’atini yuzaga keltirgan.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida

“Sözünni kədəzgil başım barmasun,

Tilingni kədəzgil tıshım sınmasun”²

(*So‘zingga ehtiyot bo‘l, boshing ketmasin, tilingga ehtiyot bo‘l, tishing sinmasin*). Chindan ham, so‘zga ehtiyotsizlik boshga, tilga beparvolik tishga xavf keltirishi mumkin. Tilni bilib ishlatish kishini saodatga yetkazishi mumkin, aqlli odam shuni hisobga oladi:

“Hibat ul-haqoyiq”da Yugnakiy shunga o‘xshash fikrni bildiradi:

² Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. (Nashrga tayyorlovchi: Qayum Karimov). – T.:Fan. 1971. – B. 87.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

“Kudazgil tilingni, kel oz qil so‘zing,
Kudazilsa bu til kudazlur o‘zing”.³

(*Tilingga erk berma, qisqa qil so‘zing, tiling tiyib yursang, omondir o‘zing*). Shoir odobsiz til jonga balo bo‘lishi mumkinligini juda obrazli qilib ko‘rsatib beradi. “Qobusnoma”da sovuq so‘zlik yomon illat ekani obrazli yo‘sinda aks ettiriladi: “*Sovuq so‘zlik bo‘lmagil, sovuq so‘z bir tuxumdur, undin dushmanlik hosil bo‘lur*”⁴.

Huvaydo falsafiy-axloqiy mavzudagi she‘rlarida so‘zlovchilar, avvalo, o‘zi ibratli bo‘lsin, so‘ngra buni boshqalarga o‘rgatish talabini ilgari suradi:

“Avval o‘zing qil amal, so‘ngra nasihat elga de,
Ey Huvaydo, so‘zlama, senda amal bor o‘lmasa”.

[Huvaydo. Devon. –B.203]

(Avval o‘zing aytgan so‘zingga amal qil, keyin elga nasihat qil, ey Huvaydo, o‘zing amal qilmaguningcha so‘zlama).

Albatta, Huvaydoning bunday axloqiy-didaktik qarashlari o‘sha davr amaldorlari e‘tiborini tortmagan, ammo oddiy xalq uning she‘rlarini ma‘qullab o‘qib, shoirni qo‘llab-quvvatlagan.

Umuman olganda, o‘n ming misraga yaqin she‘riy merosni qamragan Huvaydo she‘riyatida XVIII asr ijtimoiy-madaniy hayotidagi insonparvar ruh o‘z ifodasini topgan. Shoir ijodining asosiy mazmunini xalqchilik, hayotiylik, ma‘naviy-axloqiy tubanlikka qarshi nafrat, diniy mutaassiblikdan yiroqlashishga da‘vat kabi g‘oyalar tashkil etadi. Shoirning asarlarida Navoiy, Mashrab, So‘fi Olloyor kabi ijodkorlarning ta‘sirini yaqqol ko‘rish mumkin. Shoir she‘riyatida, ayniqsa, Mashrabona ruh ustuvor. Uning ko‘plab g‘azallari qofiya va radif uchun tanlangan so‘zlar jihatidan ham, mazmun, g‘oya va falsafiy dunyoqarash jihatidan ham Mashrab asarlariga juda yaqin. Devon mutolaasida Huvaydo g‘azal, mustazod, ruboiy, chiston-g‘azal kabi ruhbob she‘r turlari, masnaviy singari epik nazm namunalarining mumtoz ustasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Huvaydo ijodiy merosining ko‘lami, birinchidan, an’anaviylikni izchil davom ettirganligida; ikkinchidan, shoir adabiy merosi mumtoz adabiyotning an‘analari zaminida shakllanib, o‘ziga xos joziba va mohiyatga egaligida; uchinchidan, Huvaydo o‘zidan ilgari yashab o‘tgan shoirlardan ilhomlanib qolmay, maftunkor lirikasi bilan an‘analarning davomiyligini ta‘minlagan. Bu esa shoirning o‘ziga xos yo‘li, uslubi borligini, teran va falsafiy fikrlash doirasining kengligini ko‘rsatadi.

³ Ahmad Yugnakiy. Hibat ul-haqoyiq. (Nashrga tayyorlovchi: Qozoqboy Mahmudov). – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. 1971. – B. 40.

⁴ Kaykovus. Qobusnoma. – T.: O‘qituvchi. 2011. – B. 53.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xojamnazar Huvaydo. Devon. –T.:Yangi asr avlodi. 2017. –B. 202.
2. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. (Nashrga tayyorlovchi: Qayum Karimov). – T.:Fan. 1971. – B. 87.
3. Ahmad Yugnakiy. Hibat ul-haqoyiq. (Nashrga tayyorlovchi: Qozoqboy Mahmudov). – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. 1971. – B. 40.
4. Kaykovus. Qobusnoma. – T.: O‘qituvchi. 2011. – B. 53.
5. Alisher Navoiy asarlari lug‘ati. –T.:G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1972. –B.237.
6. Boborahim Mashrab. “Mehribonim qaydasan”. –T.:G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti. 1990. –B.112.
7. Zaripova D.B. Didaktik asarlarning qiyosiy-tipologik tahlili. Monografiya. –Buxoro. Durdona. 2022.